SHAXS TARBIYASIGA YO‘NALTIRILGAN RAQAMLI KONTENTLARNING XALQARO STANDARTLARI VA AMALIYOTGA JORIY ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kamoljonova Iroda Niyazjon qizi
Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 202-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23511153

ANNOTATSIYA:*Ushbu maqolada global axborotlashuv sharoitida shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentlarning mohiyati, ularning yosh avlod ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishidagi o‘rni hamda ushbu jarayonni ilmiy-pedagogik asosda takomillashtirish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida YUNESKO hamda Yevropa Ittifoqining raqamli ta’lim resurslariga qo‘yadigan xalqaro standartlari atroflicha tahlil qilingan. Maqolada milliy ta’lim tizimida xavfsiz va sifatli raqamli resurslarni yaratish, ularni psixologik-pedagogik ekspertizadan o‘tkazish hamda amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlari bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*
Kalit so‘zlar :
АННОТАЦИЯ:*В данной статье исследуются суть цифрового контента, ориентированного на развитие личности в условиях глобальной информатизации, его роль в духовно-нравственном и интеллектуальном развитии молодого поколения, а также вопросы совершенствования данного процесса на научно-педагогической основе. В ходе исследования подробно проанализированы международные стандарты, предъявляемые ЮНЕСКО и Европейским Союзом к цифровым образовательным ресурсам. В статье выдвинуты предложения по созданию безопасных и качественных цифровых ресурсов в национальной системе образования, проведению их психолого-педагогической экспертизы и эффективным механизмам внедрения в практику.*
Ключевые слова: *цифровой контент, воспитание личности, международные стандарты, ЮНЕСКО, цифровая педагогика, психологическая безопасность.*
ABSTRACT. *This article analyzes the essence of personality-oriented digital content in the context of global informatization, its role in the moral, intellectual, and personal development of the younger generation, and the issues of improving this process on a scientific-pedagogical basis. During the research, international standards for digital educational resources set by UNESCO and the European Union are thoroughly examined. The article proposes practical recommendations for creating safe and high-quality digital resources, conducting psychological-pedagogical expertise, and developing effective mechanisms for their implementation in the national education system.*
Keywords: *digital content, personality development, international standards, YUNESCO, digital pedagogy, psychological safety.*

Biz yashayotgan yigirmanchi asr oxiri va yigirma birinchi asr boshi axborot texnologiyalarining misli ko‘rilmagan darajada shiddat bilan rivojlanishi hamda jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari ta’lim va tarbiya tizimining ham mazmunini, ham shaklini tubdan o‘zgartirib bormoqda. Zamon bilan hamnafas o‘sib kelayotgan yangi avlod uchun an’anaviy pedagogik usullar va faqatgina kitobiy bilimlar ba’zan yetarsiz bo‘lib qolmoqda, chunki ularning dunyoqarashi, qadriyatlar

tizimi va hayotiy pozitsiyasi nafaqat oila yoki maktab muhitida, balki ular har kuni muloqotda bo‘layotgan raqamli makon hamda interaktiv media kontentlar ta’sirida shakllanmoqda.O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O’RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi qonunida ta’lim –tarbiya jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash ,masofaviy ta’lim va raqamli resurslardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilab bersa,[24] Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 1059-son Qarori esa raqamli texnologiyalar va media-resurslardan yoshlar o’rtasida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda unumli foydalanishning amaliy mexanizmlarini tartibga soladi. [25]O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O’RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi da qonunida ta’lim oluvchilar va raqamli platforma foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari daxlsizligini hamda raqamli xavfsizligini kafolatlaydi[26]. Shu jumladan ,raqamli media muhitining ijobiy tomonlari bo’lgani kabi,salbiy tomonlari ham qonuniy hujjatlarda aks etgan.Misol tariqasida O’zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi “Bolalarni ularning sog’lig’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to’g’risida”gi qonunida esa raqamli makonda bolalar va yoshlar tarbiyasiga ,ruhiyatiga sal’biy ta’sir ko’rsatuvchi kontentlarni cheklash hamda ularning axborot xavfsizligini ta’minlash standartlarini belgilaydi[27]. Shu sababli, ta’lim tizimida shunchaki bilim berish sifatlarni shakllantirishbilan cheklanib qolmasdan, shaxs tarbiyasiga, uning ma’naviy, ruhiy va sotsial rivojlanishiga bevosita xizmat qiladigan amaliyotga to‘g‘ri joriy etish bugungi kunning eng dolzarb va strategik masalalaridan biriga aylandi.

Shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontent tushunchasi o‘z ichiga faqatgina ma’lumot beruvchi matn yoki videolarni emas, balki foydalanuvchining ma’naviy-axloqiy, estetik, intellektual va sotsial-emotsional rivojlanishini maqsad qilgan interaktiv multimedia vositalarini, jumladan elektron darsliklar, ta’limiy o‘yinlar, animatsiyalar hamda mobil ilovalarni o’z ichiga oladi. Bunday resurslarning an’anaviy vositalardan asosiy farqi shundaki, ularda o‘quvchi passiv tinglovchi holatidan chiqib, jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi, ya’ni u qarorlar qabul qiladi va o‘z xatti-harakatining natijasini raqamli muhitda ko‘rib boradi. Biroq raqamli makonning ochiqligi va ba’zan nazoratsizligi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lmagan, hatto yoshlar psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’lumotlar oqimini ham ko‘paytirmoqda. Bu holat raqamli resurslarni yaratishda xalqaro standartlarga tayanib ish tutishni hamda ularni amaliyotga tatbiq etish

[24] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O’RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni
[25] Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 1059-son Qarori
[26] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O’RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi qonuni
[27] O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi “Bolalarni ularning sog’lig’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to’g’risida”gi qonuni

mexanizmlarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishni taqozo etadi. Global miqyosda raqamlashtirish jarayonlarining ta’lim va tarbiya tizimiga ta’sirini tahlil qilishda xalqaro tashkilotlarning, xususan, YUNESKO hamda YUNISEF tashkilotlarining rasmiy hisobotlari muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. YUNESKOning xalqaro ta’limni monitoring qilish bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘yicha 1,5 milliarddan ortiq o‘quvchi va talabalar raqamli ta’lim platformalaridan foydalanmoqda.[28] Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaliyotdagi raqamli ta’lim resurslarining atigi 15-20 foizigina o‘quvchilarning sotsial-emotsional rivojlanishi, ruhiy va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga yo‘naltirilgan pedagogik dizaynga ega. Qolgan 80 foizdan ortiq resurslar esa faqat texnik bilim berish va akademik axborotni uzatish bilan cheklanmoqda.[29]

Shu bilan birga, YUNISEFning bolalar ruhiy va ma’naviy xavfsizligi bo‘yicha e’lon qilgan global hisobotlarida ta’kidlanishicha, raqamli makondan foydalanuvchi bolalar va o‘smirlarning 60 foizdan ortig‘i o‘z yoshiga hamda psixologik-axloqiy rivojlanishiga mos kelmaydigan, ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kontentlar va kiberbulling holatlariga duch kelmoqda.[30] Ushbu raqam va faktlar shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentlarni yaratishda xalqaro xavfsizlik va sifat standartlariga rioya etish hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini zudlik bilan takomillashtirish zarurligini yaqqol isbotlaydi. Xalqaro amaliyotga nazar tashlaydigan bo‘lsak, YUNESKO hamda Yevropa Ittifoqining nufuzli hujjatlarida raqamli ta’lim va tarbiya resurslariga juda qat’iy talablar qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu standartlarning tub mohiyatida birinchi navbatda bolalarning ruhiy va ma’naviy xavfsizligini ta’minlash, ularni kiberbulling, zo‘ravonlik va nosog‘lom axborot hurujlaridan himoya qilish yotadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba kontentlarning inklyuziv bo‘lishini, ya’ni imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham teng va qulay shaklda yaratilishini talab etadi. Shuningdek, zamonaviy gamifikatsiya, ya’ni o‘yinlashtirish texnologiyalaridan foydalanganda, o‘yinlar faqat ko‘ngilochar xarakterda bo‘lib qolmasdan, foydalanuvchida qaramlik chaqirmasligi hamda real hayotdagi axloqiy va sotsial ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozimligi belgilab qo‘yilgan.

Ushbu xalqaro standartlarni milliy ta’lim va tarbiya tizimimizga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun bir qator amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur bo‘ladi. Eng avvalo, yaratilayotgan har bir raqamli tarbiya resursini amaliyotga joriy etishdan oldin uni kompleks pedagogik, psixologik va axloqiy ekspertizadan o‘tkazuvchi mas’ul tizimni yo‘lga qo‘yish hamda milliy baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga, eng zamonaviy kontent yaratilgan taqdirda ham, agar

[28] YUNESCO. Global Education Coalition Report & COVID-19 Education Response. 2020-yil, Parij.12–15-betlar.
[29] YUNESCO. Global Education Monitoring (GEM) Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms?2023-yil, Parij 84–90-betlar.
[30] YUNICEF. The State of the World’s Children 2021: On My Mind – Promoting, protecting and caring for children’s mental health.2021-yil, Nyu-York 45–48-betlar.

o‘qituvchi va tarbiyachilar undan foydalanish metodikasini bilishmasa, kutilgan tarbiyaviy samaraga erishib bo‘lmaydi, shu sababli pedagoglarning raqamli savodxonligi hamda raqamli pedagogika bo‘yicha mahoratini doimiy oshirib borish tizimini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Buning uchun har xil manbalarda tarqalgan resurslar o‘rniga o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan, xavfsiz va ishonchli bo‘lgan yagona milliy tarbiyaviy raqamli ekotizimni yaratish hamda kontent tayyorlash jarayoniga nafaqat IT-dasturchilarni, balki tajribali pedagoglar, bolalar psixologlari va dizaynerlarni birgalikda jalb etish lozim. Sohadagi ilmiy va pedagogik-psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi raqamli davrda shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan kontentlarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish shunchaki ta’limni texnik vositalar bilan qurollantirish emas, balki jamiyatning ma’naviy kelajagi hamda axborot xavfsizligini ta’minlashning eng muhim omilidir. Zamonaviy neyropedagogika va bolalar psixologiyasi sohasidagi empirik tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, interaktiv va axloqiy mezonlarga asoslangan tarbiyaviy raqamli kontentlardan muntazam foydalanish o‘quvchilarning emotsional intellekti, qaror qabul qilishda axloqiy mas’uliyati hamda tanqidiy fikrlash darajasini 28-32 foizga oshirish imkonini beradi.[31]

Xalqaro ilg‘or standartlarni milliy va sharqona tarbiya an’analarimiz hamda milliy qadriyatlarimiz bilan uzviy integratsiya qilgan holda amaliyotga joriy etsak, raqamli texnologiyalar farzandlarimizni nafaqat bilimli va intellektual salohiyatli, balki yuksak ma’naviyatli, mas’uliyatli hamda barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida eng yaqin va samarali ko‘makchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O’RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni
2. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O’RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi qonuni
3. O’zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi “Bolalarni ularning sog’lig’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to’g’risida”gi qonuni
4. Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 1059-son Qarori
5. YUNESCO. Global Education Coalition Report & COVID-19 Education Response. 2020-yil, Parij.12–15-betlar
6. YUNESCO. Global Education Monitoring (GEM) Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms?2023-yil, Parij 84–90-betlar.
7. YUNICEF. The State of the World’s Children 2021: On My Mind – Promoting, protecting and caring for children’s mental health.2021-yil, Nyu-York 45–48-betlar.
8. Journal of Educational Psychology hamda Harvard Graduate School of Education tadqiqotlari (2022–2024-yillar).

[31] Journal of Educational Psychology hamda Harvard Graduate School of Education tadqiqotlari (2022–2024-yillar).